

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.K.Kurbaniyazova</b>	
Milliy mentalitetning tilda namoyon bo'lishi .....	106
<b>Sh.D.Shodmonova</b>	
Jamoat xavfsizligini ta'minlash, unga qarshi tahdidlarni oldini olishning ijtimoiy zarurati .....	110
<b>A.I.Samijonov</b>	
"Xavfsizlik" va "Kiberxavfsizlik" atamasining mazmun-mohiyati va jamiyat hayotida xavflilik darajasini baholanishi .....	114
<b>N.X.Djalalova</b>	
Yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi .....	119
<b>I.Z.Nazarova</b>	
Yangi O'zbekistonda milliy san'at taraqqiyotining istiqbollari .....	123

---

#### ТАРИХ

<b>A.B.Musayev</b>	
Qo'qon xonligining tashkil topishi arafasida Farg'ona vodiysi .....	129
<b>Ф.А.Эгамбердиев</b>	
Некоторые вопросы использования института жалоб как способ защиты прав участников на досудебной стадии уголовного процесса .....	133
<b>M.M.Xolmatov</b>	
O'zbekistonda kollektivlashtirish asosida agrar sohaning isloh qilinishi va uning oqibatlari.....	138
<b>N.R.Israilov</b>	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati Lui Le Rua talqinida.....	144
<b>O.B.Nizomiddinov</b>	
Farg'ona vodiysida 1920-1930 yillarda ta'lim tizimining rivojlanishi: birinchi oliy ta'lim muassasaning tashkil etilishi .....	149

---

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>Q.V.Yo'ichiyev</b>	
O'zbek she'riyatida anor obrazining tadriji takomili .....	156
<b>A.Badalova</b>	
The effect of war to the inner world of characters in leo tolstoy's novel "War and peace" .....	161
<b>S.F.Yuldasheva</b>	
Xalq qissalarida Hazrati Xizr Alayhissalom obrazi .....	166
<b>D.I.Nazarova</b>	
Hozirgi aruziy she'rlarning qofiya tuzilishi .....	170
<b>S.A.Xodjayev, O.Y.Sobirjonova</b>	
Epik asar syujetida uchrashuv Motivining o'rni (L.Tolstoyning "Baldan so'ng" hikoyasi misolida).....	175
<b>M.R.Oxunova</b>	
Sharlotta Bronte "Jeyn Eyr" romanida xarakter tasviri .....	178
<b>L.Hasanova</b>	
Aesthetics of the literary direction romanticism .....	182
<b>Q.V.Yo'ichiyev</b>	
Abdulla sher sonetlari tahlili .....	186
<b>Z.F.Shukurova</b>	
"Tarixi Rashidiy" asarining hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdil talqini .....	192

---

#### TILSHUNOSLIK

<b>D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova</b>	
Metaforalarning poetik matndagi o'rni (Siddiq Mo'min ijodi misolida).....	195
<b>Z.V.Alimova</b>	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Zar" va "Zarra" asoslari bilan bog'liq leksemalar xususida .....	198



УО'К: 910. 4:930(575.2)(04)

**FARG'ONA VODIYSIDA 1920 - 1930 YILLARDA TA'LIM TIZIMINING RIVOJLANISHI:  
BIRINCHI OLIY TA'LIM MUASSASANING TASHKIL ETILISHI**

**РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ В 1920–1930  
ГОДАХ: СОЗДАНИЕ ПЕРВОГО ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ**

**DEVELOPMENT OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE FERGANA VALLEY IN THE  
1920S-1930S: THE ESTABLISHMENT OF THE FIRST HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTION**

Nizomiddinov Odiljon Baxodirovich   
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

*Annotatsiya*

*Maqolada 1920-1930 yillarda Farg'ona vodiysida ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishi, Sovet hokimiyatining ushbu sohada olib borgan siyosati hamda Farg'ona vodiysidagi birinchi oliy ta'lim muassasasi Farg'ona davlat pedagogika institutining tashkil etilishi jarayonlari tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida Sovet hokimiysi ta'limni nafaqat savodxonlikni oshirish, balki mahalliy aholi orasida kommunistik mafkurani singdirish vositasi sifatida ham amalga oshirganligi hususida to'xtalib o'tiladi. Maqolada tizimdagi islohotlarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy jihatlari o'rganilib, uning ijobjiy va salbiy tomonlari ko'rsatib beriladi. Shuningdek, bu jarayonlarda siyosiy nazoratning kuchayishi va diniy ta'limming zaiflashishi kabi salbiy oqibatlar ham kuzatilgan. Shu sababli, bu davrni har tomonlama tahlil qilish, ta'lim sohasidagi o'zgarishlarning tarixiy ahamiyatini to'liq anglashda muhim o'r'in tutadi. Shu bilan birga, Farg'ona davlat pedagogika institutining mintaqadagi pedagog kadrlarni tayyorlashdagi roli va ahamiyati haqida ham ta'kidlab o'tiladi.*

*Аннотация*

*В статье анализируется становление и развитие системы образования в Ферганской долине в 1920–1930-х годах, политика Советской власти в этой области, а также процесс создания первого высшего учебного заведения в регионе — Ферганского государственного педагогического института. В ходе анализа подчеркивается, что Советская власть использовала образование не только для повышения грамотности, но и как средство внедрения коммунистической идеологии среди местного населения. В статье рассматриваются социальные, политические и культурные аспекты реформ, а также показаны их положительные и отрицательные стороны. Также были отмечены такие негативные последствия, как усиление политического контроля и ослабление религиозного образования. Поэтому всесторонний анализ этого периода играет важную роль в полном понимании исторического значения изменений в сфере образования. Кроме того, подчеркивается роль и значение Ферганского государственного педагогического института в подготовке педагогических кадров в регионе.*

*Abstract*

*The article analyzes the formation and development of the education system in the Fergana Valley during the 1920s-1930s, the Soviet government's policy in this field, and the process of establishing the first higher education institution in the region — Fergana State Pedagogical Institute. The analysis highlights how the Soviet authorities used education not only to increase literacy but also as a means of instilling communist ideology among the local population. The article examines the social, political, and cultural aspects of the reforms, showing both their positive and negative sides. Negative consequences such as increased political control and the weakening of religious education were also observed. Therefore, a comprehensive analysis of this period plays a crucial role in fully understanding the historical significance of the changes in education. Additionally, the role and importance of the Fergana State Pedagogical Institute in training pedagogical personnel in the region are emphasized.*

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston SSR, Rossiya SFSR, kommunistik g'oya, arxiv, fond, siyosiy ma'rifatparvarlik, "Xujum" harakati, Xotin-qizlar soveti(Женондел), uy maktabi, Xalq Komissarlari Soveti, erkaklar gimnaziysi, Yormozor g'isht zavodi, O'zbekiston Pedagogika kombinati, kolxoz maktablari, Moskva, Leningrad, O'rta Osiyo Davlat universiteti (САГУ), Log'on va Katta Farg'ona kanali.

**Ключевые слова:** Узбекская ССР, Российская СФСР, коммунистическая идея, архив, фонд, политическое просвещение, движение «Худжум», Совет женщин (Женондел), домашняя школа, Совет Народных Комиссаров, мужская гимназия, кирпичный завод Йормазар, Педагогический комбинат Узбекистана, колхозные школы, Москва, Ленинград, Среднеазиатский государственный университет (САГУ), каналы Логон и Большой Ферганский.

**Key words:** Uzbek SSR, Russian SFSR, communist ideology, archive, fund, political enlightenment, "Hujum" movement, Women's Council (Zhenotdel), home school, Council of People's Commissars, male gymnasium, Yormozor brick factory, Uzbekistan Pedagogical Complex, collective farm schools, Moscow, Leningrad, Central Asian State University (SAGU), Logon and Great Fergana canals.

## KIRISH

Sovet tuzumi davrida O'zbekiston ta'lrim tizimi keng qamrovli va tub islohotlar bosqichidan o'tdi. Xronologik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, aynan 1920-1930 yillar O'zbekiston ta'lrim tizimi tarixi alohida o'rninga ega. Bu davrda ta'limga yangi yondashuvlar joriy etildi, diniy ta'lrim o'rnini dunyoviy va davlat nazoratidagi ta'lrim tizimi egalladi. Bu islohotlar mamlakatning turli viloyatlarida, jumladan, Farg'ona viloyatida ham amalga oshirildi. 1920-1930 yillarda Sovet hukumatining sohadagi siyosati va amalga oshirgan islohotlari orqali ushbu tizim yangi bosqichga ko'tarildi. Tadqiq etilayotgan davrda ta'lrim, nafaqat savodxonlikni oshirish uchun amalga oshirilgan islohot, balki yangi sovet jamiyatini shakllantirishning asosiy strukturasiga aylandi. Farg'ona viloyati, o'zining tarixiy va madaniy merosga boy hudud bo'lishiga qaramasdan, Sovet ta'lrim tizimi orqali yangi ma'nnaviyat va ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarni qabul qilishga majbur bo'ldi. Ayni davrda sodir bo'lgan o'zgarishlar faqat ta'lrim jarayonini o'zgartirish bilan cheklanib qolmasdan, balki keng ko'lamli ijtimoiy va madaniy jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekiston SSRda amalga oshirilgan islohotlar, asosan, Rossiya SFSRda joriy etilgan ta'lrim islohotlarining mahalliylashtirilgan shaklida namoyon bo'ldi. Sovet hukumati, shubhasiz, savodxonlik darajasini oshirish va jamiyatda ijtimoiy tenglikni kuchaytirish niyatida edi, biroq asosiy urg'u kommunistik g'oyalarni jamiyat ongiga singdirishga qaratilgan edi.

Ta'lrim tizimidagi bu o'zgarishlar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham o'z aksini topdi. Sovet hukumati, avvalambor, ayollar va qizlarning ta'lrim olishini qo'llab-quvvatladi, bu esa ilgari ta'limga chetlatilgan ayol aholining ta'limga kirish imkoniyatini sezilarli darajada oshirdi. Ushbu yondashuv jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy tenglikni targ'ib qildi, ammo bu jarayon ham mafkuraviy nazorat ostida bo'lib, ta'lrim olishning asosiy maqsadi yosh avlodni Sovet ideallariga mos tarzda tarbiyalash edi.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlardan ko'rinish turibdiki, Sovet Ittifoqi dasturi jamiyatni mafkuraviy jihatdan qayta shakllantirishga qaratilgan edi deb hisoblash mumkin. Shu nuqtayi nazardan, ushbu masalaga yanada chuqurroq va tahliliy nazar bilan qarash, Sovet Ittifoqi tomonidan amalga oshirilgan o'zgarishlar asli mohiyatan nimaga yo'naltirilganligini yoritish maqsadida ushbu tadqiqotga qo'l urildi.

## ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYASI

Turkiston o'lkasining marvaridi bo'lgan [1:184]. Farg'ona viloyati o'zining boy tarixiga ega, madaniy jihatdan katta merosi bilan ajralib turishi bilan ham ta'lrim tizimini ushbu hududda jadal rivojlantirish imkoniyati mavjud ekanligini ko'rsatardi. Biroq, ushbu rivojlanish jarayoni Sovet davlatining kuchli nazorati ostida olib borildi. Sovet hukumatining ushbu sohadagi asosiy maqsadi mafkuraviy va siyosiy g'oyalarni joriy etish bo'lib, bu ta'lrim muassasalarining mustaqil faoliyatini chekladi.

1920 - 1930 yillarda Farg'ona vodiysidagi ta'lrim tizimi Sovet Ittifoqining milliy siyosati va madaniy inqiloblari doirasida, o'zi anglagan holda chuqur o'zgarishlarga duch keldi. Bu davrda Sovet rejimi Turkiston o'lkasida ta'limga tubdan isloh qilishga urindi, shuningdek, Farg'ona vodiysi singari boy madaniy va diniy merosga ega hududlar ham bu islohotlarning markazida bo'ldi. Vodiydagi ta'lrim tizimi, bu yerda ochilgan birinchi oliy ta'lrim muassasasi haqida arxiv hujjalarda ham ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari xorijiy, sovet va mahalliy mualliflar bu jarayonni Turkiston o'lkasi misolida o'zlarining mafkuraviy va madaniy qarashlari bilan baholaganlar [2:60-68].

Tadqiq etilayotgan davrga doir Farg'ona viloyat davlat arxividagi "Farg'ona viloyati Farg'ona tumani xalq ta'limi bo'limi va Farg'ona tumani bolalar turmushini yaxshilash komissiyasi" deb nomlangan 154-fondda 1924-1926 yillarga tegishli bo'lgan ta'lrim hujjalari, shuningdek boshlang'ich ta'limga bolalar davomati hususida ma'lumotlar bor [3]. Arxivda saqlanayotgan "Farg'ona tumani – Bolalar turmushini yaxshilash bo'yicha Farg'ona shahar komissiyasi" [4] deb yurtilgan 508-fondda Boalalar uyi tarbiyalanuvchilarini mehnatga va foydali jamoat ishlariyoqatiga yo'naltirish, ular orasidan 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan ham jismonan layoqati bor, ham sanoat korxonalarida ishlash ko'nikmasiga ega va alabatta, o'qishga qiziqadigan yoshlarni saralab olish kabi masalalarga oid

## TARIX

ma'lumotlar mavjud. "Maorif Xalq komissarligi Farg'ona viloyat Qo'qon shahar" deb nomlangan 83-fondda esa maktablarning tashkil etilishi, ulardagi o'qituvchilar ish faoliyatları, Turkistonda məktəb ta'limini yo'lg'a qo'yish maqsadida o'qituvchilar orasida o'tkazilgan tanlovlari, Maorif Xalq komissarligining joylardagi bo'limlarini tashkil etilishi, yangicha sovet tipidagi maktablarni tashkil etish uchun harakatlar va boshqa ma'lumotlar jamlangan [5]. Shuningdek arxivning "Doimiy saqlanadigan Maorif Xalq komissarligi Farg'ona okrugi Qo'qon shahar bo'limiga oid hujjalalar" deb atalgan 131-fondida ham ta'lim maskanlariga oid ma'lumotlar saqlanadi [6]. Shuningdek "Marg'ilon shahar siyosiy ma'rifatparvarligi" deb nomlangan 538-fondda [7] va "Siyosiy ma'rifatparvarlik Farg'ona viloyat bo'limi" deb yuriladigan 351-fondda [8] ham mavzumizga oid ba'zi ma'lumotlar berilgan. Arxivning "O'zSSR Maorif vazirligi Molotov nomidagi (1958-yildan Ulug'bek nomidagi) Farg'ona davlat pedagogika instituti" deb nomlangan 800-fondi Farg'ona vodiysida ochilgan birinchi oliy ta'lim muassasasi Farg'ona pedagogika instituti(Farg'ona davlat universiteti) haqida. Ushbu fondda 1929 yildan to 1994 yilga doir bo'lgan institut o'quv va ilmiy faoliyatiga doir ma'lumotlar saqlangan [9].

Ko'rsatib o'tilgan arxiv ma'lumotlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, Farg'ona vodiysidagi ta'lim islohotlari kata hajmli ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar jarayonining ajralmas bir bo'lagi edi. Sovet ittifoqi ta'limni siyosiy va ijtimoiy muhitni nazorat qila oladigan mehanizm sifatida ishlatib, mahalliy aholining madaniyati va an'analarini qayta shakllantirishga urindi. Bu jarayon ijobiy yutuqlarni ko'rsatsa-da, milliy va diniy qadriyatlarning pasayishiga olib keldi. Shu sababli, bu davrni faqat savodxonlikni oshirish yoki iqtisodiy rivojlanish bilan bog'lash noto'g'ri bo'lar edi. Chunki bu harakatlarni jamiyatni siyosiy jihatdan qayta shakllantirish jarayoni sifatida qaralishi ham lozim.

Sovet hukumati davrida ham tadqiqot doirasidagi qator memuarlar, tadqiqot ishlari va asarlar yaratilgan. Jumladan, E.Q.Qodirovning "O'zbekiston umumta'lim maktablarining rivojlanish tarixi"(1917-1975) asarida chor Rossiysi davrida Turkistondagi məktəb tizimiga umumiyl e'tibor, sovet hukumati o'rnatilgandan keyingi davrda Turkistonda maorif tizimini rivojlanish uchun amalga oshirilgan sa'y-harakatlar, bu borada qabul qilingan qonun va qarorlar, oliy ta'lim tizimini rivojlanish kabi muammolar yoritilgan [10:11-35]. M.U.Raximovning "История Фергана" asarida Farg'ona vodiysida Sovet hukumati tomonidan joriy etilgan ta'lim islohotlari musulmon ruhoniylari va mahalliy aholi tomonidan salbiy qarshi olinganligi aytib o'tiladi [11:13]. Qarshiliklarning asosiy sababi diniy va madaniy qadriyatlarni saqlash istagi edi. Shu bois uning ahamiyatini diniy ta'lim va madaniyatni yo'qotish xavfi bilan bog'lash mumkin. A.Murodxo'jayev tahriri ostida yozilgan "O'zbekiston SSRda xalq maorifi"(1924-1949) asarida "bor kuchimiz bilan qoloq xalqlarning madaniy saviyalarini ko'tarishimiz, məktəb va maorif muassasalarini ko'paytirishimiz, atrofdagi mehnatkash aholiga tushunarli va yaqin tilda yozma va og'zaki sovet agitatsiyasini kengaytirishimiz kerak" degan Stalinni fikrlaridan iqtibos keltiradi [12:6]. Shuningdek muallif sovet məktəblari ochilishini qulikka, o'rta asr jaholatiga, savodsizlikka qarshi, xalq ozodligi uchun olib borilgan eng keskin kurash deb ataydi [13:6]. Muallif ushbu asarida o'z yondashuvi bilan mavjud sovet tizimini qo'llab-quvvatlagani va ijobiy talqin qilganini ko'rish mumkin.

Sovet hukumati davrida yaratilgan asarlarda asosiy e'tibor sotsialistik ruhni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, bu asarlar davlat mafkurasi va kommunistik g'oyani targ'ib qilish uchun xizmat qilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda aynan Farg'ona vodiysidagi ijtimoiy-madaniy hayot tasviri aynan yoritilishi kam kuzatiladi. Tahlillar ko'proq butun Sovet tizimining ushbu yillarda Turkiston misolida qabul qilinib, 1927-yilgi "Xujum" harakati kengroq talqin qilingan. Shunday bo'lsa-da, ozchilik tadqiqotchilardan biri amerikalik taniqli olim Adib Xolid o'zining "O'zbekiston tavalludi. Ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob" asarida Farg'ona vodiysidagi 1920-1930 yillarda ta'lim tizimida olib borilgan islohatlar hususida fikrlar beradi. Sovet hukumati ta'limdan jamiyatni yangilash va diniy tuzilmalarning ta'sirini kamaytirish vositasi sifatida foydalangiligini alohida keltirib o'tadi muallif [14:157-160]. Bunday amalga oshirilgan islohotlar real tahlil qilinsa, hukumat sotsialistik jamiyat qurishning bir qismi sifatida madaniy inqilobni, ya'n ta'limni birlamchi deb hisoblagan. Biroq bunday islohotlar asriy-madaniy an'analar kuchli bo'lgan vodiylar mahalliy diniy liderlar va aholining qattiq qarshiligiga duch keldi, chunki ular bu o'zgarishlarni o'zlarining diniy va madaniy qadriyatlariaga tahdid deb bilishgan.

Mahalliy respondent Ahmadjon Mamatqulov vodiydagi o'rganilayotgan davrga oid ma'lumotlar bilan o'rtoqlasharkan, xalq orasida savodsizlik darajasi kuchli bo'lgan, shu bois buvilari Tojiniso Normatova 1924-yilda o'z uyida qishloq bolalari uchun "uy maktabi" ochganligini keltirib o'tadi [15]. Keyinchalik shahar Xotin-qizlar soveti(Женотдел) raisi bo'lgan bu ayol o'z davrining ancha savodli kishilaridan bo'lgan". Shuni qo'shimcha sifatida kiritishimiz mumkinki, ushbu uy maktab keyinchalik sovet hukumati tomonidan maktab ochilishiga poydevor bo'lgan.

#### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Farg'ona vodiysida 1920-yillarga kelib savodxonlikni oshirish, xalq madaniyatini rivojlantirish, maktablarni qayta tashkil etish va yuqori darajadagi ta'lim muassasalarining keng tarmog'ini yaratish [16:5] siyosiy va madaniy jihatdan asosiy bosqichga ko'tarilgandi.

Madaniy qurilishning eng muhim tadbirlaridan biri yangi tipdagi maktablar barpo etish va ularga malakali pedagoglarni jalb qilishdan iborat edi [17:6]. Sovet hukumatining iqtisodiy vazifalar bilan bir qatorda bunday madaniy islohotlarni amalga oshirishini sovet tipidagi pedagoglarni tayyorlash bilan ifodalash mumkin.

Partiya va hukumat qarorlariga muvofiq Toshkent, Samarcand, Farg'ona, Qo'qon va Turkistonning boshqa yirik shaharlarda qisqa muddatli pedagogika kurslari ochildi. Bu kurslarda birinchi guruh sovet o'qituvchilari tayyorlanishi kerak edi. Shu munosabat bilan 1918-yilning yozida Farg'ona va Qo'qonda ochilgan birinchi o'qituvchilar kursini oz sonli kadrlar tugatgan bo'lsa-da [18], ularda umumta'llim va maxsus pedagogik tayyorgarlik bilan bir qatorda o'qituvchilarning siyosiy tarbiyasiga asosiy e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonda milliy o'qituvchi kadrlarni yaratishda ilg'or rus ziyorilari ham yordam ko'rsatdilar. Respublikada yashagan rus o'qituvchilari nafaqat maktablarda ishladilar, balki mahalliy millat yoshlaridan o'qituvchilar tayyorlashda, ularga o'z bilim va tajribalarini o'rgatishda faol ishtirok etdilar. Shuningdek, yoshlarning katta guruhlari Moskva, Leningrad kabi shaharlardagi ta'lim muassasalariga yuborildi. 1919-1924 yillarda bu shaharlardagi universitetlarda TSSRdan 734 kishi tahsil oldi. 1924/25 o'quv yilida Farg'ona viloyatidan 16 nafar o'g'il - qiz Moskva va Leningraddagi pedagogika texnikumlari va pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil oldi [19].

Respublikada savodsizlikni bartaraf etish borasida olib borilayotgan ishlar professor-o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni tobora ortishiga olib keldi. Bu esa yuqori malakali kadrlarni tayyorlaydigan yangi oliy o'quv yurtlarini tashkil etish qanchalar muhim ekanligini anglatardi. 1927-yilgacha O'zbekistonda oliy ma'lumotli professor-o'qituvchilarni tayyorlagan yagona oliy o'quv yurti 1920-yil 7-sentyabrdagi dekret bilan ochilgan O'rta Osiyo Davlat universiteti (САГУ) bo'lgan. Farg'ona davlat pedagogika instituti Farg'ona vodiysidagi birinchi oliy o'quv yurti bo'lib, O'zbekistondagi ilk pedagogika oliy o'quv yurtlaridan biri bo'ldi. Uning tarixi xalq maorifini rivojlantirish va O'zbekiston SSR ta'lim muassasalari uchun pedagog kadrlar tayyorlashdagi muvaffaqiyatli islohotlarning yorqin namunasi edi.

O'zSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1930-yil 23-martdagi 9/14 sonli qarori "1930-yil 1-maydan Farg'ona oliy pedagogika institutini ochish to'g'risida" edi [20]. Molotov nomli Farg'ona davlat pedagogika instituti 1930-yil aprel oyida tashkil etildi [21].

1880-yilda shaharda ma'muriy binolar qurilishi boshlandi. Uezd boshlig'i uchun turar joy va idora, erkaklar gimnaziysi, ofitserlar uyi poydevori qurildi. 1902-1904 yillarda G.M.Svarchevskiy loyihasi bo'yicha shaharda erkaklar gimnaziysi (hozirgi universitetning asosiy binosi) binosi qurildi. Gimnaziya shahardagi ikki qavatli binoning ikkinchisi hisoblanardi va bu binoni toshkentlik savdogar o'z hisobidan qurdirgan edi. Qurilishga g'ishtlar Yormozor g'isht zavodidan, temir va oynalar esa Rossiyadan keltirilgan. 1905-yil bahorida bino Peterburg quyma zavodida tayyorlangan temir panjaralar bilan o'ralib, gimnaziya ochilishida ko'plab manzarali daraxtlar o'tqazilgan [22:56-61].

Dastlab universitetda bitta bino – sobiq o'g'il bolalar gimnaziysi binosi bo'lganligi bois, o'quv xonalar yetishmasdi. Talabalarni turar joy bilan ta'minlash ham birdan hal bo'lmadi. Talabalar yotoqxona yo'qligi bois dastlab palatkalarga joylashtirildi [23:11].

Institutda dastlab 120 nafar talaba tahsil olgan. Ta'lim olish muddati 3 yil etib belgilandi. Institutning birinchi direktori professor A.M.Krasnousov, o'quv bo'limi mudiri dotsent S.N.Mishin, kafedra mudirlari F.M.Burnashev va R.K.Atadjanovlar edi. Institut zimmasiga kolxozi yoshlari

## TARIX

---

maktablari uchun yuqori malakali o'qituvchilar tayyorlash, maktablarga metodik xizmat ko'rsatish vazifasi qo'yildi [24:12].

Institut tashkil topgan dastlabki davrda O'zbekiston Pedagogika kombinati hisoblanib, uning tarkibiga 1) Pedagogika instituti; 2) Pedagogika texnikumi; 3) Ishchilar fakulteti; 4) Pedagogik kurslar; 5) Kechki ishchilar fakulteti; 6) Kechki Pedagogika instituti; 7) Oliy o'quv yurtlariga tayyorlov fakultetlari kirgan.

Tajriba shuni ko'rsatdiki, bitta oliy o'quv yurti tarkibida shuncha o'quv tizimini birlashtirish, ya'ni boshqaruv tizimini yagona Kombinat shaklida markazlashtirish kutilgan natijani bermadi.

Xalq maorif komissarligi bu masalani qayta ko'rib chiqib, Kombinat tizimini qayta tashkil etish haqida qaror qabul qiladi.

Institutni tashkil etish jarayonida uning oldiga nafaqat pedagog kadrlarni tayyorlash, balki maktablar uchun o'quv - metodik xizmat ko'rsatish talabi ham qo'yiladi. Bundan tashqari Xalq maorif komissarligi topshirig'i bilan kolxozi mакtablari uchun kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish, maktab qurilishini namunalni tarzda amalga oshirish uchun 1930-yil aprel oyida Farg'onada I Butun o'zbek respublika konferensiyasini tashkil etildi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi o'qituvchilarini tayyorlaydigan kafedralalar bilan bir qatorda institutda yana agronomiya bo'limi ochildi va 1931-yili 13-yanvarda Xalq maorif komissarligining qarori bilan Agro-pedagogika instituti nomi berildi.

1932-yilga kelib esa Maorif komissarligi qarori bilan Agro-pedagogika instituti tuzilmalarini tubdan o'zgartiradi. Endi institut kolxozi mакtablari uchun kadrlar tayyorlash tizimidan o'n yillik mакtablari, Ishchilar fakulteti, texnikumlarga pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga o'tdi. Shu tariqa dastlabki uch yil davomida Institut tarkibiy tuzilmasi va nomini uch marotaba o'zgartirildi: 1) Oliy davlat pedagogika instituti; 2) Agro-pedagogika instituti; 3) Davlat pedagogika instituti [25].

1933-yili nisbatan kichik bo'lgan Toshkent pedagogik instituti va Samarqand bolalar harakati instituti tugatilib, ulardagi talabalar kontingenenti Farg'ona pedagogik institutga ko'chiriladi. Ko'chirilgan talabalar bilim darajasining pastligi sababli Farg'ona Institut rahbariyati ularga maxsus qo'shimcha darslar tashkil etadi. Lekin bu institutning o'z talabalarini darslarini oqsashiga sabab bo'ladi. Aslida buning sababi ko'chirilgan talabalar bilim darajasini 1933-34 o'quv yili boshlanishigacha bu yerdagи talabalar darajasi bilan tenglashtirish maqsad qilingan edi [26].

Bundan tashqari, tugatilgan institutlarning talabalarini asosan yevropalik aholi vakillari bo'lib, Farg'ona pedagogika institutini o'zbeklashtirish masalasi yana hal etilmasdan qolishiga sabab bo'lgan.

1930-yili institut professor-o'qituvchilar safida 4 nafar milliy kadr bo'lgan bo'lsa, bu raqam 1932-yili 17 nafarga yetgan. Bu institutda o'zbeklashtirishni 75 foizga ko'tarish imkonini bergen. Shu yildan boshlab talabalar birinchi, ikkinchi va uchinchi semestrlarda o'zbek tilida ta'lim ola boshlaganlar [27].

Lekin bu boroda olib borilgan ishlar, ya'ni, mahalliy ilmiy kadrlarni tayyorlash masalalari yetarli darajada emas va milliy kadrlarni talabalar orasidan tayyorlash vazifasi davom etmoqda edi.

Institut o'z faoliyati davomida ikki marta bitiruvchi chiqardi: birinchisi 1933-yil 1-yanvarida, ikkinchisi joriy yilning 15-iyunida. Ikki guruh umumiy adabiyot bo'limini, bir guruh kimyo-biologiya bo'limini, bir guruh maktabgacha ta'lim bo'limini tashkil qilib, 105 nafar talaba dastlabki bitiruvchi bo'ldi.

Keyingi bitiruvchilar 1934-yil 1-yanvarda bo'lishi ko'zda tutilgan. Ammo SSSR MIQ qarori va O'zbekiston Maorif Xalq komissarligi bilan kelishilgan holda talabalarning 1-yanvarda bitirish muddati bekor qilindi va bitiruv muddati 1934-yil iyun oyiga ko'chirildi. 1934-yilgi bitiruvchilar quyidagilardan iborat bo'lishi belgilandi: ikkita guruh biologiya bo'limidan, bitta guruh fizik-matematika bo'limidan va bitta guruh pedagogika bo'limidan, jami 90 nafar talaba. Davlat Pedagogika institutining to'rt yillik faoliyati davomida jami 195 nafar talaba bitirgan [28].

Urushdan avvalgi yillarda Farg'ona davlat pedagogika instituti hayotida ijobji o'zgarishlar yuz berdi. 1939-yilda institutda 2 ta o'quv binolari(hozirgi fizika-matematika va tarix fakultetlari binolari) ishga tushirildi [29:15]. 1936-yildan boshlab o'quv jarayoniga ma'ruza darslari joriy etildi. Xuddi shu yildan institut yakunida diplomlarni tabaqlashtirilgan holda berish, 1938-yildan esa imtiyozli diplomlar berish joriy etildi. Shuningdek, 1937-yil noyabr oyidan boshlab SSSR Xalq Komissarlari Kengashining "Oliy o'quv yurti talabalarini uchun stipendiyalarni oshirish to'g'risida"gi 73-soni qaroriga muvofiq, oylik davlat stipendiyasining miqdori birinchi bosqichda 130 so'm,

ikkinchi bosqichda 150 so'm miqdorida belgilandi. Uchinchi va to'rtinchi bosqichlarda 175 so'm, beshinchi bosqichda 200 so'm miqdorida mablag' ajratilishi belgilandi [30:31].

Bunday o'zgarishlar zamirida shuni ham ta'kidlab o'tish zarur, ya'ni 1938-yilning kuzida institutda VK(b) MK va O'zbekiston KP(b) MK ko'rsatmasi bilan ijtimoiy fanlarni o'qitishda qayta qurish boshlandi. 1938-39 o'quv yilining ikkinchi semestridan boshlab institut o'quv rejasiga "Marksizm-leninizm asoslari" yangi kursi kiritildi [31:35]. Bu o'zgarishlar talabalar va professor-o'qituvchilarni g'oyaviy-siyosiy tarbiyalash ishlarini rivojlantirishda juda qo'l keldi.

Shunga qaramasdan Farg'ona davlat pedagogika instituti professor-o'qituvchilar va talabalari o'z xizmat vazifalarini sidqidildan bajarish bilan birga jamoat ishlarida, shahar va viloyatning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etardilar. Professor-o'qituvchilar kolxozlarda, tashkilot va muassasalarda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borib, turli mavzularda ma'ruza qilar edilar. Talabalar esa paxta yig'im-terimida, Log'on va Katta Farg'ona kanali qurilishida faol qatnashdilar.

1939-yilda Katta Farg'ona kanali qurilishida ishtirok etgan 650 nafar talabaning 175 nafari hukumat mukofotlari, nishon va faxriy yorliqlari bilan taqdirlandi [32:20].

### XULOSA

Farg'ona davlat pedagogika instituti tashkil etilishidan boshlab o'zining murakkab, ammo muvaffaqiyatli rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. U nafaqat ta'lif sifati, balki milliy kadrlarni tayyorlash bo'yicha ham, viloyat va respublika miqyosida ilm-fan va ma'rifat rivojlanishiga ham o'z hissasini qo'sha olgan. Shu bilan birga, o'z faoliyatining dastlabki bosqichida institut mavjud qiyinchiliklarni yengib o'tib, kadrlar tayyorlashda tajriba ortirgan va bu tajriba keyinchalik ta'lif tizimida foydalilanilgan.

Farg'ona davlat pedagogika instituti Farg'ona vodiysi uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, mintaqada savodxonlikni oshirish va ilm-fan, madaniyatni rivojlantirishda asosiy rol o'ynadi. Institut mahalliy pedagogik kadrlarni yetishtirib, xalq ta'lifi tizimini kuchaytirishga yordam berdi, bu esa mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysidagi malakali o'qituvchilar yetishmovchiligi muammosini hal etib, viloyat ta'lifi tizimini mustahkamlashga xizmat qildi. Biroq, institut faoliyatida tanqidiy jihatlar ham mavjud edi. Dastlabki yillarda boshqaruvdagi o'zgarishlar va nomutanosibliklar institut faoliyatini izchil olib borishga to'sqinlik qildi. Ko'p marotaba o'quv dasturlarining o'zgarishi va o'zbeklashtirish siyosatidagi qiyinchiliklar ta'lif jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, Sovet hokimiyatining kuchli siyosiy nazorati ta'lif sifatini bir yoqlama siyosiy tarbiyaga yo'naltirib, ilmiy-amaliy bilimlarni cheklab qo'ydi. Bu tanqidiy nuqtalar institut rivojlanishiga to'sqinlik qilgan bo'lsa-da, u mintaqaviy va respublika miqyosida ilm-fan va ma'rifat rivojiga baribir muhim hissa qo'shdi. Institut bitiruvchilari malakali mutaxassis sifatida xalq ta'lifi va boshqa sohalarda faoliyat yuritib, viloyat hamda respublika miqyosida ilm-fan va ma'rifat rivojiga munosib hissa qo'sha boshladilar.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston tarixi. 1-kitob. O'zbekistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakat. 184 – bet. [1:184]
2. Nizomiddinov, O. (2023). XX ASRNING 20-YILLARIDA FARG'ONA VILOYATIDA TA'LIM TIZIMI (Farg'ona viloyat Davlat arxividagi hujjatlar misolida). *Farg'ona davlat universiteti*, (6), 68-68 betlar. [2:60-68]
3. ФВДА. 154-фонд.Ферганская уездная комиссия по улучшению быта детей, отдела народного образования Ферганского уезда г.Фергана. [3]
4. ФВДА. 508-фонд.Ферганская районно – городская комиссия по улучшению быта детей Ферганской окружной комиссии по улучшению быта детей г.Фергана. [4]
5. ФВДА. 83-фонд. Ферганский областной отдел Народного образования г. Коканд. [5]
6. ФВДА. 83-фонд. Документальных материалов постоянного хранения Ферганского окружного Народного образования г. Коканд. [6]
7. ФВДА. 538-фонд. Маргеланский политической просветительства. [7]
8. ФВДА. 351-фонд. Ферганский областной отдел политко- просветительной работы (облполитпросвет). [8]
9. ФВДА. 800-фонд. Ферганский государственный педагогический институт им. Молотова, с 1958 г. – им. Улугбека Наркомата -Министерства просвещения УзССР. [9]
10. Кадыров И.К. Очерки развития общеобразовательной школы советского Узбекистана. – Ташкент, 1974. – С. 11-35. [10:11-35]
11. Рахимов.М.У. История Фергана. – Ташкент. Фан, 1984. – С. 13. [11:13]
12. Муродхўжаев А. Ўзбекистон ССРда ҳалқ маорифи. – Тошкент. Ўздавнашр. – С. 6. [12:6]
13. Муродхўжаев А. Ўзбекистон ССРда ҳалқ маорифи. – Тошкент. Ўздавнашр. – С. 6. [13:6]
14. Xolid A. O'zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob[Matn]. – Toshkent. Akademnashr. 2022. [14:157-160]

## TARIX

15. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Oqariq mahallasi, 2024 yil. [15]
16. Маъмуроў Т, Абдуллаев Ш. Ферганский государственный педагогический институт им.Улугбека. – Кузница подготовки учительских кадров. – Ташкент. Ўзбекистон, 1991. – С. 5. [16:5]
17. Маъмуроў Т, Абдуллаев Ш. Ферганский государственный педагогический институт им.Улугбека. – Кузница подготовки учительских кадров. – Ташкент. Ўзбекистон, 1991. – С. 6. [17:6]
18. ЎзРПДА ФВБ, 3- фонд, 1 – рўйхат. 25 - йиғмажилд, 6-варақ. [18]
19. ФВДА. 121-фонд. 2-рўйхат. 334-йиғма жилд. 20 – варақ. [19]
20. ФВДА. 131-фонд. 1-рўйхат. 178-йиғма жилд. 14 – варақ. [20]
21. ФВДА. 800-фонд. 1-рўйхат. 20<sup>a</sup> -йиғма жилд. 1 – варақ. [21]
22. Рахимов.М.У. История Фергана. – Ташкент. Фан, 1984. – С. .56-61 [22:56-61]
23. Шарафиддинов А. Фарғона давлат универстети: тарих ва юксалиш йиллари. – К.1: Публицистик нашр. Фарғона. Фарғона. 2015. 11 – С. [23:11]
24. Маъмуроў Т, Абдуллаев Ш. Ферганский государственный педагогический институт им.Улугбека. – Кузница подготовки учительских кадров. – Ташкент. Ўзбекистон, 1991. – С. 12. [24:12]
25. ФВДА. 800-фонд. 1-рўйхат. 20<sup>a</sup> -йиғма жилд. 2 – варақ. [25]
26. ФВДА. 800-фонд. 1-рўйхат. 20<sup>a</sup> -йиғма жилд. 3 – варақ [26]
27. ФВДА. 800-фонд. 1-рўйхат. 20<sup>a</sup> -йиғма жилд. 11 – варақ [27]
28. ФВДА. 800-фонд. 1-рўйхат. 20<sup>a</sup> -йиғма жилд. 17 – варақ [28]
29. Шарафиддинов А. Фарғона давлат универстети: тарих ва юксалиш йиллари. – К.1: Публицистик нашр. Фарғона. Фарғона. 2015. 15 – С. [29:15]
30. Маъмуроў Т, Абдуллаев Ш. Ферганский государственный педагогический институт им.Улугбека. – Кузница подготовки учительских кадров. – Ташкент. Ўзбекистон, 1991. – С. 31. [30:31]
31. Маъмуроў Т, Абдуллаев Ш. Ферганский государственный педагогический институт им.Улугбека. – Кузница подготовки учительских кадров. – Ташкент. Ўзбекистон, 1991. – С. 35. [30:35]
32. Шарафиддинов А. Фарғона давлат универстети: тарих ва юксалиш йиллари. – К.1: Публицистик нашр. Фарғона. Фарғона. 2015. 20 – С. [32:20]